



TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN SAMARALI METODLAR

Tajiyeva Zuxra Kamalbayevna

TDIU akademik litsey o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada ta'limdi zamon talabi darajasida isloq qilish, uning sifatini yuksak talab darajasiga ko'tarish muammolari atroflicha ko'rib chiqilgan, dars jarayonlarida har xil interfaol metodlardan foydalanish usullari borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: metodik kopilka, boshqaruv, usullar, maqsadli matnlar, zamonaviy yondashuvlar, ta'lim jarayoni, pedagogik mahorat.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda yashay oladigan yoshlarni tayyorlash uchun asosiy vazifasini muayyan miqdordagi bilimlarni berishdan iborat deb hisoblaydigan an'anaviy ta'lim yo'sini bugungi kunda mutlaqo yetarli emas. Chunki ilm-fan va texnika shunchalik rivojlandiki, endi inson biror fandagi eng asosiy tushunchalarni ham ma'lumotlar oqimi ko'pligi sababli uning barchasini xotirasida saqlab qola olmaydi. Bundan tashqari, tinimsiz o'zgarishlardan iborat bo'lib qolgan hayotga mustaqil qadam tashlayotgan yoshlar ana shunday o'zgarishlarga ham intellektuaal, ham ma'naviy jihatdan tayyor bo'limsa, raqobatlar kurashidan iborat hozirgi dunyoda o'z o'rnini topa olmasligi mumkin. Ana shu kurashda raqobatlasha oladigan yoshlarni ham ma'nani, ham ma'rifiy kuchli insonga aylantirish uchun o'qituvchi zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklatilmoqda. Har bir o'qituvchi bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olib, o'z kasbiga ijodiy yondashgan holda uni amaliyotga joriy etishi va albatta, tinimsiz o'qitish metodologiyasidagi yangiliklardan boxabar bo'lishi va uni o'z pedagogik mahoratidan kelib chiqqan holda amaliyotga tatbiq qilishi va har bir tashkil qiladigan darslarining mazmuniga aylantirishi zarur.

Bizga ma'lumki, bugungi kunda ta'lim tizimimizda boy tajribalar yig'ilgan. Jumladan, turli xil ishbilarmonlik o'yinlari, kompyuterli o'qitish usullari, individuallashgan



o'qitish turlari, insonparvarlik, hamkorlik, shaxsni erkin tarbiyalash va yana bir qancha noan'anaviy shakldagi ta'lif turlari ishlab chiqilgan.

Xo'sh, biz o'zimiz pedagog sifatida qanchalik ta'lif-tarbiya berishdagi zamonaviy bilimlar, ta'lifning turli ilg'or texnologiyalari bilan "qurollanganmiz". Bugungi kunda ko'pchiligidan muammo "o'quvchilar juda sho'x", "shovqin ko'tarib darsimga qulq solmayapti" deb nolib aybni ko'pincha o'quvchiga yuklab qo'yamiz. Agar biz zamonaviy metodlarni o'rganib har bir darsimizga singdira olsak, ta'lif oluvchiga shunchaki o'quvchi deb emas, aksincha, unga shaxs sifatida yondashsak, o'z-o'zidan yuqoridagi kabi muammolar o'z yechimini topishni boshlaydi.

Buning uchun, albatta, majoziy ma'noda "metodik kopilka"miz boy bo'lishi kerak. Misol uchun, har qanday fanda bundan 20-30 yillar muqaddam "Dam olish daqiqasi" deb ataluvchi kichik jismoniy mashqlar o'rnida bugungi zamonaviy til bilan atalayotgan "Enerjayzer"lar bilan bilan bolaning diqqatini jamlashga va ularda ongiy faollikning tezda harakatga kirishini ta'minlaymiz. Hozirgi zamon o'quvchi yoshlari harakatchan, o'ta shiddatkor, shu bilan bir qatorda bir xillikdan tez zerikuvchandir, sababi bugungi kunda ular axborotlar oqimi shiddatli o'sayotgan davrda ta'lif olishmoqda. Ana shu sabab dars tashkil qilish jarayonida ham imkon qadar bir xillikdan qochishimiz zarur. Bugungi kunda ommalashib ketayotgan ayrim metodlarga "Buterbrod", "Maktub", "Decoder", "10ta dalil", "3, 4, 5, 6" metodlarini, shu bilan bir qatorda "Soat millari", "4ta taraf" kabi bir qancha zamonaviy metodlarni kiritishimiz mumkin. Bunday metodlarni qo'llash texnologiyasi aynan qotib qolgan shakllarga ega emas. Bunday metodlarni o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratidan kelib chiqib o'quvchilarning yosh xususiyati va bilim saviyasiga mos ravishda o'zgartirishi, uni shakllantirishi mumkin.

Ayniqsa, o'tilgan bo'limni takrorlash, yoki yangi bo'limni boshlash jarayonida "Soat millari" metodi juda katta samara beradi. O'quvchilarni ikkita jamoaga "Soat tayoqchasi" va "Minut tayoqchasi"ga ajratamiz. Ularga oldindan tayyorlab qo'yilgan mavzuga oid kichik-kichik bir-birini takrorlamaydigan ma'lumotlardan iborat tarqatma qog'ozlarni beramiz va ularni xuddi soat shaklida aylana qilib tizib olamiz, ya'ni daqiqa jamoasi tashqi



aylanadan, soat jamoasi ichki aylanadan joy olishadi. O'qituvchining har bir ogohantirishidan keyin bir-biriga ro'parama-ro'para turgan o'quvchilar o'z ma'lumotlarini sheriklariga tushuntirib beradi va bu jarayon dastlabki o'quvchiga qayta uchragunga qadar davom etadi, soat tayoqchalari o'z joyida turadi, minut tayoqchalari esa soat strelkasi kabi aylanishadi. Ushbu berilgan qisqa vaqt oralig'ida o'quvchilar 10tadan ortiq ma'lumotlarni eshitib, eslab qolishga harakat qilishadi. Natijada o'quvchilarda bir qancha qobiliyatlar: o'z fikrini bayon eta olish, jamaa bo'lib ishlash, liderlik va o'zgani eshita bilish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Bunday metodik texnologiyalarni har bir fanda qo'llashimiz mumkin.

Umuman olganda, ta'lif samaradorligini oshirish, eng avvalo, o'qituvchining pedagogik mahorati hamda uning ta'lif jarayoniga nisbatan fidokorona yondashuviga bog'liq, albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirsolieva M. Ibragimova G. Ta'lif texnologiyalari va pedagogik mahorat. T..2015
2. Yangi pedagogik texnologiya: tahlil, ta'rif, mulohazalar. Maqolalar to'plami.- Toshkent 2010.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. O'qituvchi, 2004.
4. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. –T.: 2000.